

MANBALARDA MUHAMMAD YUSUF DOIY HAQIDA

Islomova Barno Umurovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.033>

Annotatsiya: Maqolada Xorazm adabiy muhitida o'z o'rniga ega shoir Muhammad Yusuf Doiy haqida turli tazkiralari va boshqa manbalarda berilgan ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkiranavislik an'analari, devon, devon tuzish an'anasi, Xorazm adabiy muhiti, oxun, va'z, va'zxon.

О МУХАММАДЕ ЮСУФЕ ДОИ В ИСТОЧНИКАХ

Исламова Барно Умуровна

исследователь Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: В статье исследуются сведения, приведенные в различных tazkiras и других источниках о поэте Мухаммаде Юсуфе Дои, имеющем место в литературной среде Хорезма.

Ключевые слова: tazkira, традиции tazkiranavi, devan, традиция изготовления devana, хорезмская литературная среда, чтение, проповедь, проповедник.

ABOUT MUHAMMAD YUSUF DOI IN THE SOURCES

Islamova Barno Umurovna

researcher of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: The article examines the information given in various tazkiras and other sources about the poet Muhammad Yusuf Doi, who has a place in the literary environment of Khorezm.

Key words: tazkira, traditions of tazkiranavis, devan, tradition of making devan, Khorezm literary environment, reading, sermon, preacher.

XIX asrda Xorazmadabiy muhitining rivoji va gullab-yashnashida Muhammad Rahimxon - Feruzning xizmatlari katta. U o'z yonigaijodkorlar, sozanda hamda bastakorlarni chorlab adabiyot va musiqaning rivojiga katta hissa qo'shgan podshoh, nozik tabiatli shoir bo'lgan. XIX asr Xorazm adabiy muhiti haqida turli tazkira va bayozlarda ma'lumotlar uchraydi. Hasanmurod Lafassiyning "Tazkirayi shuaro", Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm navozandalari" asarlari ana shunday tazkiralari jumlasidandir. Bobojon Tarroh Xodim Muhammad Rahimxon saroyida ishlagan, xon topshirig'i bilan shoirlarga rahbarlik qilgan. U "Xorazm navozandalari" asarida har bir shoir haqida to'liq ma'lumot bergan, ya'ni shoirning o'z nomi, otasining nomi, adabiy taxallusi, tug'ilgan joyi, ijtimoiy ahvoli, ilmiy darajasi, devon tartib qilgani, uning axloqiy tomonlari, vafoti va boshqalar. Lekin ularning ijodidan namunalarni bermagan. Shunday bo'lsa-da, biz o'sha davr ijodkorlari, so'z san'atkorlari, sozanda-yu bastakorlari haqida bu asardan ma'lumotlarni o'rganamiz. Bu asarning "Shoir Yusuf Hoji Oxun bayoni" da Xodim quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi: "Shoirning ismi Yusuf Hoji Oxun, otasining ismi Said Niyozshayx bo'lg'an. Uning adabiy nomi Doiy edi. Bunomni uning o'zitanlag'on va xon ham buni ma'qullag'on. Yusuf Hoji Xeva qal'asida qo'tirrais qavmida tug'ilg'on. Bu yer Xevaning Tosh darvozasi yonida bo'lib, juda mashhur joy. Yusuf Hoji Oxun o'tasi shayx bo'lgani uchun uni dindor oilasidan chiqqan deyish mumkin"[5].

Muallif shoir Yusuf Hoji Oxungga ta'rif berar ekan, arabiy va forsiy tilda o'tkirligini, bunday olim Xorazmda kam ekanligini yozadi. Shunday bo'lsa ham shogirdlarining ko'p emasligini ta'kidlab o'tadi. Shoir Doiy Arabxon madrasasida oxun, juma namozi o'qiladigan masjid davra'xon bo'lganligi, xalq bilan munosabati yaxshiligi haqida ham tazkirada

ma'lumotlaruchraydi. Xodim Doiy haqida tazkirada yana quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi: "YusufHoji Oxun o'rta bo'yli, o'ta chiroyli, uzun oq soqolli, kekxa kishi edi. Muhammad Rahimxon ikkinchidan ham qo'rqmasdi. Bizni forsiyig'a o'qitib topshirg'andan keyin muftiy etib tayinlandi"[5].

Yana tazkirada "Shoir Muhammad Rahimxon ikkinchining bayoni" da ham shoirlardan Bolta Devon, adabiynomiNodim, YusufXarrot, adabiy nomi Chokar hamda muallifning o'ziYusuf Hoji Oxundan Sa'diyning"Guliston", "Bo'ston" va Firdavsiyning"Shohnoma" asarlarini o'rganishganini bayon etgan.

Xodim Nosir to'ra haqidagi"Shoir Nosir to'ra bayoni"daDoiyning Xorazmdagi birinchi olim ekanligini ta'kidlab quyidagilarni yozib qoldiradi: "Shoir Nosir to'raeski maktabni bitirgan, lekin madrasa ta'limini olmagan edi. Uni Muhammad Rahimxon yaxshi ko'rar edi. Shuning uchun olimlar birla har hafta ziyofat qilib,birinchi olim Muhammad Yusuf Oxun, ikkinchi olim Siddiq Oxun, uchinchisi Yusufbek (adabiy nomi Bayoniy)lar birla ziyofat qilib. alardan shoirligni o'rganib, xususan,Yusufbek Bayoniyni o'ziga ustoz qilib olib shoir bo'ldi"[5].

1975-yilda filologiya fanlari kandidatiE'tiborIbrohimovanning shoirDoiy hayoti va ijodi haqidagi "Xalqparvar shoir" risolasi nashr etilgan. Mualif Muhammad YusufDoiy hayotihaqidagima'lumotlarni qiyosiy tahlil qilib bergan,hamda ijod namunalaridan keltirib, tahliliga e'tibor qaratgan, uningozdavridataniqli, ko'zga ko'ringan shaxs bo'lganligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: "MuhammadYusufhoji-DoiyXIX asr Xorazm adabiy harakatchiligining ko'zga ko'ringan vakillaridandir"[3].

E.Ibrohimova Muhammad Yusuf Doiyning xalqparvar ekanligini, zolim amaldorlarning xalqni talon-toroj qilayotganligini B.Davlatovning shaxsiy kutubxonasi saqlanayotgan tazkira asosidaquyidagicha bayon etadi: "Shoir ko'ngli yoqtirgan kishilar bilan shirin suhbatlar qilar, ularga xonzamonasining poraxo'r, zolim amaldorlarining ko'ngilsiz kirdikorlaridan so'zlab berar edi. Ammo Doiy o'zi yoqtirmagan kimsalarni, ayniqsa amaldorlarni hech ayamasa, barcha yomon xulqlarini yuzigasolar va hajv qilar edi. Keyinchalik Doiy XivadagiJome' masjidigavoiz (va'zxon) qilib tayin etiladi. Shoir u yerda, ayniqsa juma kunlarda namozga yig'ilganlarorasida o'zining zamon to'g'risidagi fikrlarini ochiq bayon etadi. Doiy suhbatlarini kuzatish uchun xon tomonidan yig'inga yashirincha yuborilgan odamlarningqatnashganini payqasa-da, namozdan so'ng odamlar orasida zamona amaldorlarining zolimligi, qurayotgam masjid, madrasa, minoralar mehnatkash xalq mulkini talon-toroj qilish, ularni qashshoqlantirish va mislsizko'z yoshlarini oqizish hisobiga bo'layotganini, buning uchun esa poraxo'r zolimlaru dunyoda hisob berajagi va qiynoqlarga yo'liqishi muqarrarligini so'zlab beradi"[3].

Doiy haq so'zni aytishda hech kimdan cho'chimasligini Xodim o'z tazkirasida bayon etgan bo'lsa, E. Ibrohimovanning yuqoridagi fikrlari ham buni tasdiqlab turibdi. Darhaqiqat, har qanday zamonda yashab o'tgan shoirlar oddiy xalqning g'amini yeydigan, ularni himoya qiladigan, dardlarini tinglay oladigan ijodkorlarhisoblanadilar.

Lafassiy, Tabibiy va Xodim tazkiralarda Feruzning adolatparvarligi haqida bayon etilgandaDoiyuning yonida turib yordam berganligiga e'tibor qaratilgan. "Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha,Feruz fuqarolarning arz-dodini tinglash uchun alohida vaqt ajratib,ularningxon a'yonlariga qarshi qilgan ishlarini kechirib yuborgan. Kimda kim umaro, vuzaro, ulamo, beklarningnopok, nomaqbul ishlarini tanqid qilib, el orasida oshkor etsa, o'sha haqiqatgo'yga sarupo berib siylagan. Masalan, Yusuf HojiDoiyni ana shu fazilati uchun Xiva masjidi Jome'gavoiz qilib tayinlagan va qaysi amaldor o'z mansabini suiiste'molqila boshlasa, uni o'z ayblarini el-yurt oldida eshitib, o'ziga xulosa chiqarib olishi uchun masjidga namozjumaga jo'natgan..."[4].

Ahmad Tabibiy "Majmuai si shuaroyipayravi Feruzshohiy"hamda "Muxammatsoti majmuat ush shuaroyiFeruzshohiy" tazkiralarda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi

Xorazmdagi adabiy muhitni yoritish ekan, albatta, o'sha davrda taniqli va haqqo'yiligi bilan tanilgan Doiyning hayoti va ijodidan ham namunalar bergan. "Muhammatsoti majmuat ush shuaro'yi Feruzshohiy" tazkirasida Tabibiy "oxundiravshan zamir Doiy" deb Muhammad Yusuf Oxunga ta'rif berib o'tgan.

Muhammad Yusuf Doiyning vafoti yili haqida turlicha ma'lumotlar mavjud. Bu haqda Xodimo'z tazkirasidashundayyozadi: "Shoir Doiy 70 yoshida vafot etdi. Jisadi oliy martabaliQori A'lam Bobo, buzilgandan keyin Chodirli Eshon qabristoniga qo'yildi"[5].

E.Ibrohimova esa Doiyning vafotihaqida o'rganganma'lumotlari asosida quyidagilarni "Xalqparvar shoir" risolasidakeltiradi: "Xiva shoir va adabiyotchilari tarjimayi hollari tazkisasi" da shoirning tarjimayi holi to'g'risida umumiy ma'lumotlar aytilgan vauning qisqacha xarakteristikasi berilgan. Ammo uning 82 yil umr ko'rgani qayd etilsa-da, tug'ilgan va vafotetgan yillari aniq ko'rsatilmaydi. B.Davlatov shaxsiy kutubxonasiidagi tazkirada Doiy biografiyasi to'g'risida yuqoridagi tazkirada mavjud gaplar qaytariladi va shoir 1327 hijriy, ya'ni 1909-yilda 85 yoshida vafot etgani qayd etiladi"[3]. E.Ibrohimova tazkiralarni solishtirib Doiyning 80 yoshdan ortiqroq umr kechirganini shoirning avtobiografik she'rida ham mavjud ekanligini yozgan.

Muhammad YusufBayoniy"Shajarayi Xorazmshohiy"tarixiy asarini yozar ekan, xonning o'zi Feruz taxallusi bilan she'r yozganini, atrofiga ijod ahlini to'plab, Xiva adabiy muhitini yaratganligini alohida yozib o'tadi. Bu asar orqali bizmashhur bo'lgan Xiva adabiy muhiti haqida yaxlit tasavvur hosil qilamiz: "Xon hazratlari she'rga ko'p zavq paydo qilib erdilar. O'zlari ham burundan Feruz taxallusi bilamutaxallis bo'lib, she'r aytur erdilar. So'ngroq she'rga ko'proq haris bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqg'a qobiliyati bo'lsa, nav'i she'rlarini aytib dargohi oliyg'a olib bora berdilar. Shoirning adadlari kam-besh qirg'a yovuq bordi"[1].Xonningkitobxonlik oqshomlarini uyushtirganda Doiyning ham ishtirokini muallif eslatib o'tadi: "Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzub kitobxonlik etdurur erdilar. Andog'kim, Yusufhoji oxund va Islomxo'jaoxund vaXudoyberdi oxund va olim-u ulum ma'qul va manquldaMullo Muhammad Rasul va faqiri haqir majlis humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub kitobxonlik etar eduk"[1].

"Lafassiy o'ziningtazkirasida Xivada yashab ijod etgan 57 ta shoir haqida ma'lumot berib o'tadi"[2]. Ular orasida Muhammad Yusuf Doiy haqida ham ma'lumotlarkiritilgan. Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yichafalsafa doktori(PhD) Surayyo Do'stova Lafassiy tazkirasining qiyosiy-matniytahlilini amalga oshirish jarayonida asardagi Doiy hayoti va ijodini ham to'liq tahlil qilib beradi, ayrim o'rinlarga aniqliklar kiritadi. Olima "Ilm chashmalari" jurnalining 2017-yiloktabr sonida "Tazkirayi shuaro"daDoiy hayoti va ijodi" maqolasidaDoiy hayoti va ijodining "Tazkirayi shuaro"asaridaqay tarz dabayon etilgani yoritib bergan. "Doiykim, Yusuf hoji oxund muftiydur. Yusuf hoji Xiva qal'asida hunarmand bo'yoqchi oilasida tavallud topib, juda ham riyozatlar bilan eski maktablarda o'qub, savodxon bo'g'onidin keyinBuxoro'yi sharif borib, chunon kamchiliklar bilan riyozatlar qilib, ilm tehsil qiladur..."[2] Xodim o'z tazkirasida Doiyningotasishayxlardan ekanligini yozib, uning kasbi haqida ma'lumotbermaydiLafassiy esashoir otasining kasbiga ham to'xtalib o'tgan. S.Do'stovaDoiyning tug'ilgan yili haqida Lafassiyning tazkirasida hech qandayma'lumot berilmaganligini ta'kidlar ekan, Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasulning "Feruz" nomli asariga tayanibDoiyning 1824-yilda tug'ilganligini aytib o'tarkan, quyidagi ma'lumotlarni ham beradi:"Muhammad Yusuf hoji Feruz Muhammad Rahimxon farmoyishig'a muvofiq, Doiy taxallus birlan turluk adabiyot va ham Feruzg'a tatabbu gazallar yozib, Doiy isminda bir devon ham ta'lif etadur"[6]. "Darhaqiqat, O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagiSharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari fondidagi906, 908, 6676, 6677raqamli qo'lyozmalarga Doiyning ham devoni kiritilgan. Bu devonlarda shoirning 300 dan ortiq g'azallari hamda muxammas, musaddas, mustahzod, musamman, qasida kabi janrlardagi she'rlari o'rin olgan. Bundan tashqari, 1126, 1157raqamli qo'yozma bayozlarda ham Doiyning ba'zi she'rlari uchraydi. Uning

ijodida ishqiy mavzuda yozilgan gʻazallar koʻp. “Tazkirayi shuaro” asarining 12561-qoʻlyozma nusxasida ham Doiyning Feruz gʻazaliga tatabbusi berilgan”[2]. S.Doʻstova tazkira asosidadil, gapga chechan Doiyning payrav, madhiyalardan tashqari, hech tortinmasdan aʼyonlarni fosh qiluvchi hajviyalar yozganini bayon etadi.

Munis, Ogahiy, Feruz kabi koʻzga koʻringan shoirlar qatorida Muhammad Yusuf Doiy ham Muhammad Rahimxon II – Feruz davri Xorazm adabiy muhitida va oʻzbek adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan shoirlardandir. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan baʼzi shoirlarning tuzgan devonlari toʻlaliq icha oʻrganib chiqilmagan, shunday shoirlar qatoriga Muhammad Yusuf Doiy ham kiradi. Tazkirlardan maʼlum boʻldiki, Doiy ham devon tuzgan, ammo ularning matni ham hali qiyosiy oʻrganib chiqilmagan. Bizning asosiy vazifamiz Muhammad Yusuf Doiy devonining qoʻlyozma nusxalarini oʻrganish va yigʻma matnini tuzish, nashrini amalga oshirib kelajak avlodga yetkazishdir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Bayoniy. “Shajarayi Xorazmshohiy”. Ziyouz.com kutubxonasi. 58-b
2. Doʻstova S. “Tazkirayi shuaro da Doiy hayoti va ijodi.” Ilm sarchashmalari. Urganch-2017. 34-b.
3. Иброхимова Э. “Халкпарвар шоир”. Тошкент-1975. 3-4-5-б.
4. Маткаримова С. “Табибий-тазкиранавис”. Тошкент-2011. 38-б
5. Ходим. “Хоразм навозандалари”. Тошкент-94. 59-б.
6. Laffasiy Tazkirayi shuaro. OʻRFA sharqshunoslik instituti sharq qoʻlyozmalar fondi 12561 qoʻlyozma